

BOSHLANG'ICH TA'LIMDA FRANSUZ TILINI CHET TILI SIFATIDA O'QITILISHI VA O'RGATILISHINING ILMIY ASOSLARI

Usmonova Farangiz Bahodir qizi

Mirzo Ulug'bek nomidagi Milliy Universiteti 4-bosqich talabasi.

Annotatsiya. Mazkur maqola fransuz tilini chet tili sifatida o'qitilishi va o'rgatilishining evolyutsion ilmiy asoslari, tarixiy jihatdan zamonaviy tillarni o'qitishning birinchi metodikasi haqida bayon etilgan.

Kalit so'zlar. Muloqot vositalari, "o'qitish metodi" atamasi, XXI asrning zamonaviy tillarni, didaktiklar, an'anaviy metodika, klassik metodika, grammatika-tarjima metodikasi.

Hozirgi ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy rivojlanish bosqichida ta'limda bir qan cha o'zgarishlar yuz berdi, chunonchi, mamlakatimizda ham ushbu ja rayon jadallik bilan rivojlanib bormoqda. Ta'lim jarayonida pedagogik-texnologiyalardan foydalanish samaradorligi o'zining ko'p qirraliligi bilan namoyon bo'lmoqda. Bugungi kunda har bir sohaning takomillashishi, rivojlanishi uchun xilmaxil metodlar qo'llanilayotganidek, ta'lim-tarbiya sohasida ham turli xil metodlardan foydalanilmoqda. Davlatimiz rahbarining 2018-yil 5-martda Namangan viloyati To'raqo'rg'on tumanidagi Is'hoqxon To'ra Ibrat nomidagi xorijiy tillarga ixtisoslashgan maktab-internatiga tashrifi chog'ida hozirgi globallashuv davrda bir necha zamonaviy chet tillarni o'rganish, ilmiy tadqiqotlar olib borish, dunyo miqyosidagi raqobatdosh yetuk, bilimli, intellektual kadrlarni tayyorlash, zamonaviy chet tili o'qitish metodikasini rivojlantirish kabi muhim vazifalarni ta'kidladilar.

Ushbu islohotning asl mohiyati kelajak avlodni yetuk intellektual va salohiyatli kadrlarni ta'minlashdan iborat. Shu maqsadda boshlang'ich sinflarda chet tillarni o'qitish muhim ahamiyat kasb etadi. Mamlakatimizda ham barcha tillar qatori fransuz tilini chet tili sifatida o'qitish va o'rgatish dolzarb vazifadir. Hozirga kelib olib borilayotgan tadqiqotlar jarayonida barcha mamlakatlarning gumanistik istagi yuqori bo'lgan ta'lim tizimida o'quvchilarni hissiy va kognitiv rivojlanishi muammoli tushunchalar hamon muammoligicha qolmoqda. Ilgari surilayotgan til siyosati sohasida milliy ta'limning boshlang'ich sinfda ikkinchi chet tillarni o'qitilishining o'ziga xosligi, chet tilida til ko'nikmalarini rivojlantirishni o'rgatish, ko'p tillilik va xalqlar madaniyati ko'nikmalarini shakllantirish muhim ahamiyatga egadir. Nemis tilshunos olimi, filosof V.Gumboldning ta'kidlashicha: "Til o'qitishning asl maqsadi uning umumiy tuzilishi to'g'risida bilimlarni yetkazishdir".

An'anaviy metodika sistemali ravishda tarjima mashqi sifatida mavzuni qo'llash va gaplarni yodlash va til o'rganishdan iboratdir. Grammatika deduktiv, ya'ni qoidani taqdim etish orqali o'rgatildi, so'ngra u jumlar va takroriy mashqlar shaklida maxsus holatlarda qo'llanildi. So'z birikmasi matnda taqdim etilgan yuzlab so'zlarning ro'yxati shaklida o'qitildi va o'quvchi buni chin dildan bilishi kerak edi. Darhaqiqat, so'zlarning ma'nosi uning ona tiliga tarjimasi orqali o'rganilgan. Ushbu tizimning qat'iyiligi va uning umidsizlik natijalari uning yo'qolishiga va o'quvchilar uchun yanada jozibador bo'lgan boshqa nazariyalarning paydo bo'lishiga yordam berdi.

XXI asrning zamonaviy tillarni, ya'ni fransuz tilini boshlang'ich maktabda o'qitish asosiy muammolaridan biridir. Tillarni idrok etish, ularning mavjudligi, qo'llanilishi, o'zaro

munosabatlari va o'rganilishi haqidagi ushbu savol bizni tashvishga soladigan muammo markazidadir. Tillar dunyo bo'ylab muloqot qilish, tajribalarni boyitish, doimiy ravishda rivojlanish va istalgan vaqtda muloqot qilish imkoniyatini yaratadi. Shunday qilib, 2001-yilga kelib, tillar miqyosida yevropa yili deb e'lon qilindi, uning dastlabki evolyutsiyasini va iloji boricha 19 asrdan boshlab, to hozirgi kungacha bir necha yillar mobaynida tushib ketgan qadrini ko'tarish maqsadida, xorijiy tillarni o'qitish metodikasi, xususan, fransuz tilini turli usullari haqida ma'lumot beriladi. Aytish mumkinki, chet tilini o'rganish obyekti an'anaviy metodikadan boshlab juda rivojlandi.

XIX asr mobaynida madaniy obyekt ustuvorlik darajasida edi. Darhaqiqat, chet tilini, uning adabiyotini, san'atini, maqollarini, umuman, buyuk madaniyatini o'rganish maqsadida o'rganildi. Bu bilimlar yuqori ijtimoiy va intellektual darajasini namoyon etdi. Ayniqsa, chet tilini o'rganuvchini alohida ajratib ko'rsatdi. Biroq, 1950-yildan boshlab, tilni o'qitishning amaliy maqsadi boshqa tilda so'zlashuvchi insonlar bilan samarali suhbatlashish uchun mo'ljallangan aloqa vositasi sifatida imkoniyat berildi. 1960-yillarda maktab muhitida til o'rgatish o'z cho'qqisiga chiqqan bo'lsada, 1980-yillarga kelib o'z nufuzini yana yo'qotdi deb aytish mumkin. Bu holat bilan parallel ravishda chet tillarni kattalarga o'rgatishning o'ziga xos xususiyatlari tobora kengayib bordi. O'quvchi endi o'quv jarayonida yetakchi o'rinni egallaydi, bu esa auditoriyalar va ularning aniq o'quv maqsadlari va yo'nalishlarini aniqlash ehtiyojlarini tahlil qilishga qaratiladi.

XIX asrdan boshlab va hozirgi kunga qadar turli metodikalar birin-ketin paydo bo'ldi, ba'zilar avvalgi metodika bilan, boshqalari esa jamiyatning yangi ehtiyojlariga moslashdi. Biroq, metodikalarning xronologik ketma-ketligi hech qanday aniq tarzda aniqlanmaydi, chunki ularning ba'zilar avvalgi holatga kelmasdan oldin birgalikda yashashgan. Hozirda Fransiyada xorijiy tillarni o'qitishning an'anaviy metodikasining ba'zi didaktiklar tomonidan tan olinmaydi, boshqalari esa buni usul deb bilishadi. Buni an'anaviy metodika, klassik metodika yoki grammatika-tarjima metodikasi deb ataladi. Ushbu metodika qadimda maktablarda lotin va yunon tillarini o'qitish uchun qo'llanilgan. Keyinchalik, ushbu metodika zamonaviy tillarni o'rganishga turtki bo'ldi, buning natijasida, lotin va yunon tillari o'lik tillar deb hisoblandi.

Ushbu metodika XIX asrning ikkinchi yarmida fransuz o'rta ta'limida ham keng qo'llanilgan. Bu bir necha asrlar davom etgan va metodik tafakkurning rivojlanishiga hissa qo'shgan metodikadir. Mashhur fransuz tilshunos olimi Kristian Puren fikriga ko'ra, "an'anaviy metodika juda muhim metodik o'zgarishlar XVIII-XIX asrlar o'rtasida ro'y berishiga sabab bo'ldi va bevosita metodikaning kelishi bir butun ichki evolyutsiyaga duchor bo'ldi". Bu metodikaning asosiy maqsadi – adabiy matnlarni chet tilida o'qish va tarjima qilish, shu tariqa og'zaki matnlarni esa ikkinchi qatorga joylashtirish edi.

Til ona tiliga yaqinlashishi va matnlarda o'rganilishi va topilishi mumkin bo'lgan qoida va istisnalar majmuidir. Biroq adabiy shaklga butunlay e'tiborsiz bo'lmasa ham, matnlarning ma'nosiga ko'ra ko'proq ahamiyat berilgan. Shuning uchun adabiy mualliflar tomonidan ishlatiladigan "standart" va yuqori sifatli til mavjud bo'lib, u og'zaki tildan afzal bo'lishi va munosib lingvistik kompetensiyaga ega bo'lishi uchun o'quvchilar tomonidan taqlid qilinishi kerak. Madaniyat chet tilida so'zlashadigan mamlakatlarda yaratilgan adabiy-badiiy asarlar jamlanmasi sifatida qabul qilingan. XVIII asrda an'anaviy metodika tarjima mashqi, gaplarni eslab qolish, tilni o'qitish texnikasi sifatida sistemali ravishda mavzu bo'lib qo'llanila boshladi. Grammatika esa deduktiv ravishda o'qitila boshladi (avval qoida joriy etildi va keyin jumlarlar shaklida alohida holatlarga tatbiq etildi). Bu vaqtda til o'rgatishda grammatik metalangajdan

(boshqa nutqni tasvirlash uchun qo'llaniladigan nutq) foydalanish keng tarqaldi; uning merosi bugungi kunda ham davom etayotgan jarayondir.

Anri Bessening fikriga ko'ra, "An'anaviy metodika yaxshi natija bermasligini ta'kidlaydi, chunki, o'quvchilarning grammatik kompetensiyalari har doim cheklangan va o'rganish uchun taklif qilingan jumlar ko'pincha sun'iy amalga oshiriladi". Masalani qayta ko'rib chiqish natijasida ushbu an'anaviy metodika XIX asrning oxiriga qadar tabiiy metod bilan birga yashadi.

Avvalo, tadqiqotning konseptual (g'oyaviy) tafovut va tahliliga munosabat bildirish lozim. Keyinchalik, fransuz tilini chet tili sifatida o'qitilishining asosiy komponentlariga va o'qitish amaliyotlariga va nazariy konsepsiyani amalga oshirish uchun diqqat e'tiborni qaratish zarur. Bu ta'limning ikki asosiy maqsadi shundan iboratki, muvaffaqiyatli til o'rgatishga erishish, o'quvchining hissiy rivojlanishini bilish, unga nafaqat yaxshi ijtimoiylashtirish imkoniyat berish, shuningdek, uning ko'nikmalarini a'lo darajaga ko'tarishdan iborat. Turli xil didaktik va pedagogik takliflarni qo'llab-quvvatlash uchun, biz turli mavzu bo'yicha tadqiqot natijalariga murojaat qildik va fransuz tilini chet-tili sifatida o'qitilishiga oid didaktik o'quv materiallaridan (o'quv-qo'llanmalar, boshqarish va yordam vositalardan) misollar keltirdik.

Asosiy diqqat markazida bo'lgan birinchi savol: maktabda shakllangan o'quvchining jo'shqin, ta'sirchan, quvnoq harakati bilan hissiy rivojlanish jarayonini bir-biriga bog'lash mumkinmi? Bolalik-kognitiv rivojlanishi va o'z-o'zini namoyon etish davridir. Shuning uchun bu o'rganishlarni amalga oshirish uchun asosiy fundamental davrni o'tkazib yubormaslik kerak. Maktabga qatnash o'quvchini kognitiv bilim vositalari bilan ta'minlash va uning fikrlash ko'nikmalari rivojlantirish va o'zi sohasini bilimdonlik qobiliyatini shakllantirish imkonini beradi. Boshqacha qilib aytganda, agar o'quvchining kognitiv rivojlanishi va o'z-o'zini namoyon qilish jarayoni ancha oldin boshlansa, maktabga borish ishtiyoqi sistematik ravishda shuncha erta rivojlanadi.

Nutqiy muloqot faoliyati davomida tilni o'rganuvchisi va foydalanuvchisi doimo quyidagi fikrlash hamda kognitiv qobiliyatlaridan foydalanishga majbur bo'ladi:

- nutqiy faoliyat turlaridan foydalanish uchun;
- asosiy tayanchlarni boshqarish uchun;
- nutqiy vazifalar davomida hal qilinadigan lingvistik elementlardan foydalanish uchun;
- taqdim etilgan ma'lumotlar to'plamidan o'z vazifalarini bajarish uchun foydali bo'lgan narsalarni tanlash;
- uning obro'si va bilimlarini shakllantirish uchun.

Natijada, "o'quvchi o'z ona tilisini o'rganayotganda yangi chet tillarni qo'shilishi murakkab jarayondir, buning natijasida, qo'shimcha bilim sarmoya talab qiladi, chunki, o'quvchilar o'z ona tillarini turli jihatlarini o'zlashtirish jarayonida yangi tilni qo'shilishi ularga muammolar keltirib chiqaradi". Bundan tashqari, ushbu holat murakkab va samarali jarayondir, modomiki, tildan foydalanish fikrlash tarziga qattiq ta'sir qiladi. Yangi tillarni o'rganish, yangi tizimning qanday ishlashini tushuntirish uchun qo'shimcha bilim jarayonlarini beradi va uning ijtimoiylashuvi va ongning ochiqligiga yordam beradi. Bu ikkinchi tilni erta o'rganish uchun o'quvchi bitta emas, balki ikki tilda suhbatni davom ettirishini va u ikki tilda hech bo'lmaganda birinchi tilda o'zi bilgan ijtimoiy va intellektual foydalanish sohalarining bir qismini topishi kerakligini anglatadi. Bundan tashqari, tilni o'qitishda va o'rgatishda, boshqa ta'limdan emas, balki o'quvchilarning kognitiv rivojlanishi uchun ularning potensialidan qanday foydalanishni biladigan strategik ta'lim talab etiladigan ta'limdan foydalanish kerak.

Kognitiv rivojlanish tushunchani anglash uchun, kognitiv va bilish vositalar orqali eshitish kerak. Bilish bilimni anglatadi. U intellektual sohaga taalluqli bo'lib, shu ma'noda bevosita o'rgatish bilan bog'liqdir. Bu bilimlarni idrok etish, yodlash, fikrlash, dunyoni anglash orqali muvaffaqiyatga erishiladi. Hozirgi holatda psixo-ijtimoiy va ijtimoiy-konstruktivizm yondashuv faoliyatlari tanlanadi.

Jan-Pol Runing ijtimoiy-konstruktivizmining fundamental g'oyasi shundan iboratki, unda "ikki elementdan tashkil topgan (shaxs va vazifani o'zaro ta'siri) psixologiyadan "uchlik" (shaxs, vazifa, o'zgartiruvchi) psixologiyaga o'tish muhimdir. Rivojlanish boshqa mustaqil ravishda o'rganilmaydi, balki o'rganish faqat o'quvchi va obyekt o'rtasida shaxsiy munosabatlarda bo'lishi mumkin. Ushbu turdagi yondashuvda biz ijtimoiy o'zgaruvchanlik o'quv jarayonlarining o'ziga bir xil ta'sir ko'rsatishini, barcha rivojlanish mexanizmlar individual mexanizmlarning ta'siri tufayli o'rganish natijasida yuzaga keladi, deb hisoblaymiz.

Mashhur rus olimi, psixologi L.S. Vigotskiyning fikricha, "o'rganish shaxsning kognitiv rivojlanishi uchun muhimdir. Uning fikricha, aqliy jarayonlar (diqqat, xotira, og'zaki fikrlash,...); ijtimoiy munosabatlarning mevasidir, shaxslararo jarayonlarni o'zgartirish ichki shaxsiy jarayonlar orqali amalga oshiriladi, nutq va boshqa semiotik (belgilar nazariyasiga oid fan) tizimlar orqali ijtimoiy rivojlantiriladi".

Tadqiqotning asl mohiyati boshlang'ich maktabda qanday qilib fransuz tilini chet tili sifatida o'rgatishga qaratiladi. Bu esa o'quvchilarni fransuz tilini chet tili sifatida o'qitilishida qo'llaniladigan didaktik yondashuvlar va pedagogik muomalani, shuningdek, nutqiy munosabatlarni, bilim jarayonlarni maksimal darajada yaxshilash uchun qulay ish usullari va metodlarini o'rganishga qaratilgan. O'qitish amaliyoti nuqtayi nazaridan, o'qituvchi nimani o'rgatish kerakligini aniqlash masalasi muhimdir. Shundan kelib chiqib, o'quvchining hissiy rivojlanishi qanday shakllanadi?

Mutaxassislar o'qitish paytida ehtiyojlarni qondirish haqida ogohlantiradilar, bu esa o'z navbatida o'qitish, o'rganish va o'rganish obyektiga nisbatan motivatsiya va ijobiy munosabatlarni yaratuvchisiga aylanishi mumkin. Ushbu faoliyat idrok, o'rganish, xotira, til va fikrlash kabi bilim jarayonlarini o'z ichiga oladi. "Avvalo, maktab o'quvchisining asosiy ehtiyojlari nimalardan iborat ekanligini bilishimiz zarur. U o'ynaydi, kuylaydi, va ular takrorlashni yaxshi ko'radilar. Ular o'yin o'ynaydilar, suratlarni tomosha qilishni yoqtiradilar, ular tarixni va tasavvur qilishni yaxshi ko'radilar." Metodik va didaktik kompetensiyalarning kognitiv rivojlanishi paytida bolalarning hissiy rivojlanishi uchun o'qituvchi mas'uldir. Agar kognitivlik ko'pincha kognitiv va metakognitiv o'rganish strategiyalari bilan bog'langan bo'lsa, qanday qilib o'qitishning turli qismlarini aralashish orqali biz o'quvchilarimizda ushbu strategiyalarni optimallashtirish, umuman olganda, xususan, tilni o'rganish jarayonida ko'rishimiz mumkin. Amaliy jihatdan, kognitiv o'rganish kognitiv o'qitishni talab qiladi. Kognitiv o'qitish ta'limning barcha parametrlarini tartibga solishni talab qiladi. Chet tilini o'quvchilarga o'qitish uchun qo'llaniladigan usullarga kelsak, ushbu mavzu bo'yicha mutaxassislar tomonidan tavsiya etilgan og'zaki, induktiv, taqlidiy va faol usullarni taqdim etiladi. Faol usuldan foydalanganda, ushbu o'qitish usuli o'quvchilarga yordam berishi va yo'naltirishi mumkinligi va bunda ayniqsa, unda ishtirok etishlari so'raladi. Bu usul farqli o'laroq o'quvchi uchun aniqroqdir, aksincha, kattalar esa "jismoniy faoliyatdan mustaqil ravishda chet tilini to'liq o'rganishga harakat qilishadi".

Ijtimoiy-kasbiy motivatsiyaning yo'qligi va birinchi navbatda tilga ehtiyojning yo'qligi, albatta, motivatsiyaning buzilishiga olib keladi, hatto, chet tiliga nisbatan norozilikka, o'ziga xos xususiyati kundalik aloqa ehtiyojlarining yetishmasligiga sabab bo'ladi. Keyinchalik, til o'rganish

va o'zlashtirish bilan bog'liq bo'lgan metodologik savollar paydo bo'ladi. Haligacha boshlang'ich ta'limda o'z ona tilisini to'liq o'rganmagan holda fransuz tilini o'rganishga majbur bo'lgan o'quvchi-bolalar bilan ishlanadi va cheksiz, mayllar, buyruq mayllari kabi tushunchalar bilan, ular o'zlashtirmagan turli xil atamalar haqida gapirishga majburdir.

Tilni o'rganish uchun har doim ham yetarli sharoit va muhitni yaratish mushkuldir. Xalq ta'limi tomonidan islohotlarni amalga oshirish maqsadida qilingan harakatlar shaklida ta'lim muassasalari uchun yanada qulay bo'lishi uchun dasturlar ishlab chiqilyapti. Ushbu dasturlarning mazmuni o'quvchilarimizga yuqori darajada, sifatli, amaliy usullarda bilim berish uchun fransuz tili o'qituvchilari bilan turli xil seminar va tadbirlarni o'tkazish, mavjud bo'lgan muassasa, oila va jamiyat bilan bog'liq bo'lgan qiyinchiliklarni bartaraf etish muhimdir.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash lozimki, barcha o'rganilgan va tahlil qilingan nazariyalar, fikr-mulohazalar va qarashlar rivojlanib kelayotgan kelajak avlodlarni yetuk bilimli, intellektual bo'lib yetishiga xizmat qilish va ilm-fanni rivojiga ko'maklashishdan iborat.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2018- yil 5-martdagi Namangan viloyati To'raqo'rg'on tumani Isoqxon Ibrat nomidagi maktab-internatiga tashrifidagi nutqi.[Speech of the President of the Republic of Uzbekistan Shavkat Mirziyoyev on March 5, 2018 during the visit of Ishakhon Ibrat boarding school specializing in foreign languages of Turakurgan district of Namangan region.]
2. W. von Humboldt, Sur le caractère national des langues et autres écrits sur le langage, trad. D. Thouard, Paris, éd. du Seuil, 2000, p. 177. La citation de Humboldt est à la page 131.
3. Christian PUREN, Histoire des méthodologies d'enseignement des langues vivantes (1988)p.448,pp 18-19.
4. P.Passy De la méthode directe dans l'enseignement des langues vivantes .1889, Paris Collin p. 80,p 42.
5. Sadullaeva N., Sapaeva D. Analysis of Eponyms in the Terminology of Dermatovenerology //Annals of the Romanian Society for Cell Biology. – 2021. – C. 452-459.
6. Sadullaeva, N., & Bakhtiyorova, M. (2021). Reflection of Onomastic Principles in Naming. Annals of the Romanian Society for Cell Biology, 3001-3007.
7. Sadullaeva N., Burieva U. The Peculiarities of Incomplete Sentences in Modern English //Annals of the Romanian Society for Cell Biology. – 2021. – C. 3008-3020.
8. Sadullaeva S., Arustamyan Y., Sadullaeva N. Shifting the assessment paradigm from knowledge to skills: Implementation of new appraisal procedures in EFL classes in Uzbekistan //International Journal of Innovative Technology and Exploring Engineering. – 2019. – T. 9. – №. 1. – C. 4943-4952.
9. Arustamyan, Y., Siddikova, Y., Sadullaeva, N., Solieva, M., & Khasanova, N. (2020). Assessment of Educational Process and its Organization. International Journal of Psychosocial Rehabilitation, 24(S1), 573-578.
10. Nilufar S., Elvira A. GENDER SPECIFICITY OF PEDAGOGICAL DISCOURSE //INTERNATIONAL SCIENTIFIC CONFERENCES WITH HIGHER EDUCATIONAL INSTITUTIONS. – 2023. – T. 3. – №. 08.05. – C. 187-190.
11. Gulnoza K., Sadullaeva N. LINGUISTIC FEATURES OF GLUTTONIC DISCOURSE.

12. Djafarova, Dildora, Yaxshiboyeva Nodira, and Abdullayeva Zulfiya. "Socio-Cultural Memory and Its Reflection In French Phraseology." *Journal of Positive School Psychology* (2022): 2883-2889.
13. Yaxshiboyeva, Nodira. "Reconstruction of coloristic expressions in erkin azam's" noise" and" pakana's love"." *Конференции*. 2021.
14. Ilhomovna, Djafarova Dildora, and Bobokalonov Odilshoh Ostonovich. "Interaction of Language Games in the Articulation of "Historical Memory" Within French and Uzbek Phraseology." *American Journal of Language, Literacy and Learning in STEM Education* (2993-2769) 2.1 (2024): 348-354.
15. Ilhomovna, Djafarova Dildora, Bobokalonov Odilshoh Ostonovich, and J. A. Yakubov. "Archaic Phraseological Units as Windows into "Historical Memory" in French and Uzbek Linguistic Traditions." *American Journal of Public Diplomacy and International Studies* (2993-2157) 2.1 (2024): 163-169.
16. Ilhomovna, Djafarova Dildora, Bobokalonov Odilshoh Ostonovich, and Yaxshiboyeva Nodira Ergashovna. "Contemporary Usage of Archaic Phraseological Units Expressing "Historical Memory" In Uzbek and French Languages." *American Journal of Language, Literacy and Learning in STEM Education* (2993-2769) 2.2 (2024): 371-377.
17. Ilhomovna, Djafarova Dildora. "Phraseological Units Expressing" Memory"/" Mémoire" in Linguistics and their Analysis through Texts." *Best Journal of Innovation in Science, Research and Development* 2.11 (2023): 490-492.
18. Яхшибоева, Нодира. "Таржима жараёнида маданиятлараро мулоқотнинг социолингвистик хусусиятлари." *Академические исследования в современной науке* 2.17 (2023): 165-169.
19. Иногамова, Ф. М., and Н. Э. Яхшибоева. "Фразеологик маънотинг конвенциялиги." *Academic research in educational sciences* 3.5 (2022): 1176-1182.
20. Яхшибоева, Н. (2023). Туристический дискурс как один из особых видов институционального дискурса. *International Bulletin of Applied Science and Technology*, 3(6), 879-884.
21. Яхшибоева, Нодира. "The role of tourism terminology in french." *O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI*, 2023,[1/4] (2023).